



SCIENCE AND
PEDAGOGY IN THE
MODERN WORLD:
PROBLEMS AND SOLUTIONS

2024



IN VOLUME #2
ISSUE #1



www.wocconferences.com

Google Scholar



№	TABLE OF CONTENTS	
1	QANDLI DIABET KASALLIGI Xoshimova Durдона Fazliddin qizi	4
2	ЭКССУДАТИВНО-КАТАРАЛЬНЫЙ ДИАТЕЗ Абдуллаева Гулида	8
3	SYSTEMATIC ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS A. Elimbi	13
4	ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ВА ЁШЛАР ТОМОНИДАН ҚИМОР ВА ТАВАККАЛЧИЛИККА АСОСЛАНГАН БОШҚА ҲИЙНЛАРНИ ҲТКАЗИШ ЖИНОЯТЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ Беристенов Самат Оразбаевич	19
5	"QISASI RABG'UZIY" ASARIDA TOG' MOTIVI BILAN BOG'LIQ O'RINLAR Sayliyeva Zarina Raxmiddinovna Maxmudova Saidaxon Rajabali qizi	24
6	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYARI Vaxronova Marjona San`atovna	28
7	ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ДЕСПОТИЗМ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА Ҳошимова Лолахон Ахмед қизи	34
8	TEMPERAMENTAL XUSUSIYATLARNING EMPERIK ASOSLARI Mirzayeva Shahnoza Ubaydullo qizi	39
9	QON KASALLIKLARI N.Yigitaliyeva U.Urayimov	55
10	QON XUJAYRALARI U.Qo'chqarova F.Tojiboyeva	65



"QISASI RABG'UZIY" ASARIDA TOG' MOTIVI BILAN BOG'LIQ O'RINLAR

**Sayliyeva Zarina Raxmiddinovna,
Buxoro davlat universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, (PhD)
Maxmudova Saidaxon Rajabali qizi
Buxoro Davlat Universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi**

Annotatsiya: "Qisasi Rabg'uziy" asarida tog' motivining muhim o'rin tutishi va qissalarda mifologik yoki real hodisa yuzaga keltirishi o'rganiladi.

KIRISH

Ushbu maqolada payg'ambarlar va ular haqida qissalarni bayon etuvchi Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarining g'oyaviy-badiiy yaxlitligini tashkil etuvchi tog'lar va ularning nomlari to'g'risida so'z boradi.

Islom dinining mohiyati ochib berish va insonlarni tavhidga chorlash maqsadida Haq Taolo tomonidan yuborilgan payg'ambarlar to'g'risida juda ko'plab qissalar bayon qilingan. Ularning eng birinchisi muqaddas Qur'oni Karim manbasida keltirilgan. Shundan so'ng, o'tmish rivoyatlari insonlar tomonidan yozma va og'zaki usulda ham tarqaldi. Ilk yozma manbalar arab tilida yozilgan bo'lib undan keyin forsiy va turkiy adabiyot namunalarida ham uchray boshladi. Turkiy adabiyotda payg'ambarlar tarixi haqida dastlabki asar Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi tog' va tog' nomlari bilan bog'liq qissalar tahlilga tortiladi. Bunda asarning turli yillarda nashr qilingan nusxalaridan, monografiyalardan, bir qator mifologik kitoblardan va ilmiy ishlardan qiyoslab o'rganish uchun foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vol. 2. Issue 1:

24



O'rta asr Sharq adabiyotida payg'ambarlar tarixi haqida asar yozish an'ana shaklini olgan bir paytda X-XI asrlarda arab adabiyotida Muhammad Jarir at-Tabatiyning "Tarix-ur-rasul va-l-muluk" nomli payg'ambarlar va podshohlar hayoti haqidagi mashhur asar yozildi. Undan so'ng esa Abu Is'hoq Niysaburiyning "Qisas ul-anbiyo" asari g'oyalari bilan yo'g'irilgan "Qisasi Rabg'uziy" asari yaratildi. Ushbu asari diniy xarakterga ega bo'lgan real borliq bilan bog'liq adabiyot namunasidir. Tog' motivi eng ko'p uchraydigan asarlar mavzusiga ko'ra payg'ambar va anbiyolar haqida bo'lganligi uchun diqqatimizni shu asarga qaratdik. Asarda payg'ambarlar tarixi 72ta katta-kichik qissalar orqali bayon etilgan. Mavzu ko'lami keng bo'lib uning bosh g'oyasida olamlar sarvari Alloh turadi va undan keyin uning payg'ambarlaridir. Asardagi qissalarda payg'ambarlarning tog'larga borib ro'za tutishi va ma'lum bir muddat davomida toat-ibodat bilan shug'ullanishi voqealari bir necha o'rinlarda keladi. Muso (a.s) haqidagi qissada ham shunday keltiriladi: "Vaxtara Musa qavmahu sab'ina rajulan limiqotina. Horunni xalifa qo'ymish erdi. "O'tuz kunda kelgayman", deb Tur tog'inda o'ttiz kun ulashu ro'za tutdi". Yunus Yalavoch (a.s) qissasida ham Yunus alayhis-salomning xotini va farzandlari bilan Lukom tog'iga borishi keltirilgan. Bo'ri, qoplon, arslondan boshqa jonzot bo'lmagan tog'da ibodatga mashg'ul bo'ladilar. Buning birinchi sababi Yunus (a.s)ni tutib dorga osmoqchi bo'lgan xalqdan qochish bo'lsa ikkinchisi, xalqiga insof so'rab Allohga ibodat qilish uchun edi. Xizr va Ilyos alayhis-salom haqidagi qissada butlarga sig'inib, Yaratganning qahrini keltirgan qavmga qahatchilik va ochlik keladi. Tavhidga chaqirgan Ilyos (a.s)ga quloq solmay o'zlarini halokatga duchor qiladilar. Ilyos (a.s) va Xizr tog'ga borib ibodat qiladilar va shundan so'ng yomg'ir yog'adi. Zakariyo va Yahyo(a.s) haqidagi qissada u kishining sifatleri keltirilgan ekan quyidagi voqea aytib o'tiladi: "Aytmishlar, Yahyo yavloq muttaqiy zohid kishi erdi. Kichikda toatg'a haris erdi. O'g'lonlarga qo'shulmay tun-kun toatlarga oshib toat qilur erdi". Shuningdek, tog'larda ibodatga berilish yana Iso (a.s) va Zulqarnayn haqidagi qissalarda ham uchraydi. Muhammad (s.a.v)ga ham ilk marta vahiy kelgan. U kishi Hiro tog'ida edilar. Payg'ambarlarning aynan tog'da ibodat qilishlari balki,



insonlar ko'zidan uzoqda bo'lish va riyodan saqlanish o'y fikrlari natijasida yuzaga kelgandir.

Qissalarda yana bir diqqatimizni tortgan jihat shundaki, qurbonlik qilish jarayoni ham aynan tog'larda, tog' etaklarida bo'lishidadir. Bu masalada, balki, ibtidoiy insonlarning marhum ruhi tog'lar orqali yuqoriga ko'tarilishi, ko'kka uchib o'tishi mumkin, degan qarashlariga bog'liqdir. Qadimgi insonlar marhumlarning o'limidan so'ng ham ko'rishiga, eshitishiga, o'z yaqinlariga yordam qo'lini cho'zishiga bo'lgan ishonchlari tufayli marhumlarga atab qurbonliklarni ham tog'larda qilishgan.

Muso alayhis-salom qissasida tog' bilan bog'liq yana bir noodatiy voqeani uchratamiz. Muso (a.s) Allohning jamolini ko'rishni istab diydorlashgach o'lsam ham mayli deydi. O'zining Yaratgan oldida zaifligiga qaramay fikridan qaytmagach osmondan shunday nido keldi: "Ul holda Mavlo azza va jalla tajalliy nurin ul tog'ga soldi. Tajalliy ma'nisi ochilmoq bo'lur. *Yorluq keldi: Ey Muso, bu tog'g'a boqg'il o'rninda to'lansa mani ko'rgaysan. Va lakin unzur ilal jabali fa in istaqarra makanaxu fa savfa taraniy. Tog' chiqtim, ersa kuyarman. Yana Arshni ko'targan farishtalar indi. Bu qamug' farishta birikib "subuhan quddusan" ayturda tog'ni turub ko'rdi ersa kesak-kesak bo'ldi*". Yaratganning soyasidan parchalangan tog' tasvirlangan.

Qissalarda shuningdek, Tur tog'i, Hiro tog'i, Damovand, Uhud, Lukom kabi tog' nomlari bir necha o'rinda keltirilgan. Sulaymon (a.s) dunyoda yetti narsani tasnif qilingan devlarga hukmronlik qilardi. Ular suv tegirmoni, naqqoshlik, surat solish, toshni u tog'dan bu tog'ga olib o'tish vazifasini bajarardilar. Ba'zilar unga bo'ysinmasa ularni tog'larda saqlardi. Sulaymonning buyrug'i bilan devlar Bayt ul-Muqaddasning toshlarini tog'lardan kesib tomini yopganlari haqida ham Bayt ul-muqaddasi sifatleri qissasida keltirilgan.

Mumtoz adabiyot namunalarida tog' motivi juda ko'p uchraydigan motivlardan biridir. "Qisasi Rabg'uziy"dan keyin ham boshqa nosirlar ijodida payg'ambarlar tarixini yorituvchi hikoya va qissalardan iborat asarlar yozilgan. Alisher Navoiyning



"Tarixi anbiyo va hukamo" nomli anbiyolar, avliyolar va payg'ambarlar tarixini o'rganishga bag'ishlangan asari shular jumlasidandir. Bu asarda ham Idris, Yofas, Som, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Xizr, Yunus kabi payg'ambarlar hayotlari bilan bog'liq hikoyalar davomida tog'lar bilan bog'liq voqealar o'rin olgan.

Xulosa

Asarda asosiy maqsad payg'ambarlar hayotini yoritib berish bo'lsada, yozuvchi undagi tog' motivining o'rni naqadar ajralmas ekanligini tog'lar nomlarini deyarli har bir hikoyada takroriy voqealar bilan ochib bergan. Qissalarda payg'ambarlar eng qiyin vaziyatlarda tog'larga borib umrguzaronlik qilishlari, ularga qaysidir ma'noda tog'larning ko'maklashishi anglashiladi. Ya'ni ularni vaziyatdan chiqishlari uchun vositachi bo'la oladi. Bu asarning mazmun-mohiyatiga o'z ta'siri ko'rsatgan. Ikkinchi tomondan tog'lar yordamida ko'rsatib berilgan voqealar kitobxon taassurotida bo'layotgan voqealarni jonlantiradi va ijobiy iz qoldiradi. Biz imkon qadar ochiqlashga harakat qilgan tog' obrazi bizda shunday xulosa qoldirdi. Albatta, jism serqirra bo'lgani kabi asardan, asardagi obrazlardan ham xulosalar turlicha bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T., 1990-91.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik 1-tom, 1977.
3. Fozilov E. Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. 1-kitob, 1990.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2000.

Internet saytlari:

1.kh-davron.uz

2.ziyouz.com

